

**Bobomurodova Dilafruz Yoqub qizi**

*Termiz Davlat Universiteti Xorijiy filologiya fakulteti*

*Tarjima nazariyasi va amaliyoti yo'nalishi 205-guruh talabasi*

*bobomurodovadilafruz447@gmail.com*

**Annotation:** In this article, we can see another type of linguistics. In the article, we will get acquainted with the opinions of several scientists on translation methods and the problems caused by their use. It also includes grammatical structures that are used in translation methods.

**Keywords:** Translation, explanatory theory of translation, method, linguistics, linguistics structure.

**Аннотация:** В данной статье мы можем увидеть другой тип лингвистики. В статье мы познакомимся с мнениями ряда ученых о методах перевода и проблемах, вызванных их использованием. Сюда также входят грамматические конструкции, которые используются в методах перевода.

**Ключевые слова:** Перевод, объяснительная теория перевода, метод, лингвистика, лингвистика, структура.

**Annotatsiya:** Ushbu maqlada tilshunoslikning yana bir turini ko'rishimiz mumkin. Maqlada tarjima metodlari, ulardan foydalanishda yo'l qo'yadigan muammolarga bir qancha olimlarning fikirlari haqida tanishamiz. Tarjima metodlarida o'chraydigan grammatik tuzilishlarni ham o'z ichiga oladi.

**Kalit so'zlar:** Tarjima, tarjimaning izohli nazariyasi, metod, tilshunoslik, lingvistika, struktura.

Muhokama

professional tarjimon sifatida tanilganlar. O'zbek tilida ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar Tarjimachiligidagi ham katta yutuqlarga erishilgan.

Bunda R. Abduraxdyunov, V. Rahimov, A. Shomahmudov, Tincherova kabi tarjimonlarning hissasi katta.

Tarjima amaliyotini, uning o'ziga xosliklarini, tarixini, tamoyillari, prinsip va krnuniyatlarini tarjimashunoslik fani o'rganadi, tarjimonga o'girish uchun asar tanlash, tillararo tafovutlar hamda asliyatga xos boshqa xususiyatlarni, milliyadabiy an'analarni hisobga olgan holda ish tutishda yordam beradi. 20-asr o'zbek adabiyotida tarjimashunoslik maxsus fan tarmog'i sifatida yuzaga keldi va shakllandi. Cho'lpon, Sanjar Siddiq kabi mohir tarjimonlar nafaqat bu davr tarjima adabiyotini, ayni paytda tarjimashunoslik ilmini ham boshlab bergenlar, tarjima haqida maqola va risolalar bitganlar.

O'zbekistonda tarjimashunoslik maxsus ilm sifatida o'tgan asrning

2-yarmidan shakllandi. Asr oxiriga kelib, bu sohada 10 ga yaqin fan turi, 50 dan ortiq fan nomzodi yetishib chiqdi. Professor Jumaniyoz Sharipov tadqiqotlariga asosan adabiyotimiz tarixida tarjimaning o'rnini ko'rsatishga bag'ishlangan bo'lsa, professor G'aybullha Salomov asosan zamonaviy tarjimashunoslik masalalari bilan shug'ullandi,

tarjima jarayoniga til hamda adabiy an'analarning ta'sirini ko'rsatib berdi. Najmiddin Komilov esa mumtoz janrlarning o'tmish va hozirdagi tarjimalarini tadqiq etdi.

O'zbek tarjimashunosligi asosan adabiy yo'nalishda taraqqiy etgan. Tarjimaning insoniy jihatlari keyinroq — o'zbek tiliga ko'pgina xorijiy tillardan bevosita o'girishga yo'l ochilganidan so'ng rivojlana boshladи. Tarjimaviy tarjima nazariyasi (TIN) tarjimashunoslik sohasidagi tushunchalardan biridir. Tarjimaning izohli nazariyasi 1970-yillda fransuz tarjimonи va Parij tarjimonlik mакtabining Sobiq direktori Danika Seleskovich tomonidan yaratilgan. Seleskovich o'z davrining mohir tarjimonи bo'lib ishlagan va o'sha paytdagi "Tarjima faqat bir tilni boshqa tilga qayta kodlanadigan lingvistik faoliyatdan boshqa narsa emas" - degan fikrga qarshi chiqqan. U tarjimani uch qismli jarayon sifatida ta'riflagan: bir tildan ma'noga va ma'nodan boshqa tilga o'tish. Seleskovich "Tarjimaning sharhlovchi nazariyasi" nomini yaratdi va tarjimashunoslik o'ziga xos fan bo'lishidan oldin ham tarjima jarayonini kognitiv tadqiqotlarning keng maydoniga kiritdi. Amalda olingan kuzatishlarni tasdiqlash uchun Seleskovich doktorlik dissertatsiyasini yozishga kirishdi. Tez orada unga Oliy tarjimonlar mакtabida tadqiqotga qiziqqan tarjimonlar guruhi qo'shildi. Metod (yun. "metodos" — bilish yoki tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot) — vo-qelikni amaliy va nazariy egallash, o'zlashtirish, o'rganish, bilish uchun yo'l yo'riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli.

M.ning kelib chiqish tarixi kishilarning amaliy faoliyatiga borib taqaladi. Biror ishni bajarish M.ini egallagan kishi shu ishni boshqalarga nisbatan oson, tez va soz bajara oladi. M.ni egallamagan inson esa bu ishni bajarish uchun ko'p vaqt va kuch sarflaydi. M. o'z mazmuni jihatidan amaliy yoki nazariy shaklda bo'lishi mumkin. Insonning amaliy faoliyatiga oid M.lar ham voqelikka xos bo'lgan qonuniyatlarni anglab yetish, bilib olishga borib taqaladi. M.lar haqidagi ta'limot fanda metodologiya deb ataladi. Inson dastlab atrofdagi narsa va hodisalarni kuzatish, ularni bir-biriga taqqoslash, o'xshatish, farq qilish asosida voqelik haqida bilimlarini to'plab borgan. Voqelik haqidagi fanlar rivojlanishi bilan fanlarda qo'llaniladigan yo'l-yo'riqlar, M.lar ham takomillashib borgan. Fanning amaliy (empirik va nazariy M.lari vujudga keldi.

Fan M. larining asosiy mazmunini amaliyotda sinalgan ilmiy nazariyalar tashkil etadi. Har qanday ilmiy nazariya mohiyati jihatidan M. funksiyasiga egadir. M., o'z navbatida, yangi ilmiy nazariyalar va qonuniyatlarning ochilishiga vosita bo'ladi. Shu nuqtai nazardan M. bilan ilmiy nazariya funk-siyasiga ko'ra, bir-biridan farq qiluvchi ilmiy amal hisoblanadi.

Falsafa va fanlar tarixida ilmiy M.ning mohiyatini tadqiq etish, yangi-yangi M.larni kashf etish alohida ahamiyatga egadir. Har qanday bukj ilmiy kashfiyotlarga nisbatan olimning biror yangilikni kashf qilishda qo'llagan ilmiy M.i ko'proq ahamiyatga egadir, chunki boshqa kashfiyotchilar ham shu olim qo'llagan ilmiy M.ga tayanib ko'plab kashfiyotlarni ochishi mumkin.

Bilish M.lari voqelikni qamrab olishi jihatidan 3 turga bo'linadi: yalpi umumiy bilish M.lari — hamma fanlarda va bilishning barcha bosqichlarida ham ko'llaniladigan umumiy va universal M.lar — metodologiya; umumiy bilish M.lari — bir qancha yoki barcha fanlarda qo'llaniladigan va bilishning muayyan bosqichi (empirik, nazariy yoki empirik

bosqichdan nazariy bosqichga o'tish chegarasi)da qo'llaniladigan bilish M.lari; xususiy yoki maxsus M.lar — ayrim fan doirasida qo'llaniladigan bilish M.lari.

O'rta Osiyo olimlaridan Forobiy, Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino va boshqa fan M.larini rivojlantirganlar. Xorazmiy olimlarni uchga bo'lib, ularning bir qismi ilmiy kashfiyotlarni ochishda qullaniladigan yo'l-yo'riq va usullarni ishlab chiqib boshqa olimlarning ilmiy izlanishlarini osonlashtiradi, deb yozganida, aynan shu M.larni ishlab chikuvchi olimlarni nazarda tutgan.

Yaqin davr Yevropa faylasuf olimlari ham M. taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shishdi. F. Bekon, G. Galiley, R. Dekart, G. Leybnits singari faylasuflar M.lar haqida maxsus asarlar ham yozishdi. tomonidan baravar, bir vaqtning o'zida o'rganiladi. Asosiy lingvistik metodlar sifatida tavsifiy (qiyosiy, konfrontativ, kontrastiv, tipologik), tarixiy (qiyosiy-tarixiy, komparativ) va normativstalistik (me'yoriyuslubiy) metodlarni ko'rsatish mumkin. Tilshunoslikda yana maxsus tadqiqot usullari — lisoniy hodisalarni kuzatish, lisoniy eksperiment, lingvistik modellashtirish, lingvistik talqin usullari ham mavjud. Tilshunoslik falsafa va filologiya fanlari tutashgan chegarada paydo bo'lgan.

Tilshunoslik muammolarini o'rganish dastlab Qadimgi Hindistondan boshlangan.

#### Xulosa

Biz ushbu maqolada bir qancha olimlarning fikirlari va ularning ilmiy ishlari bilan tanishib chiqdik. Bundan tashqari metodikaning turlari bilan ham tanishdik. Ushbu maqolada metodikaga doir bir qancha olimlarning ijodiy ishlarini ham keltirib o'tdik. Maqolada tilshunoslikning va tarjima jarayonidagi muommolariga yechim topilganini ham ko'rishimiz mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Aliboyeva, Nigina. "SELECTION OF SPECIAL TRANSLATION METHODS FOR ADEQUATE INTERPRETATION OF CHILDREN'S LITERATURE." Scientific Collection «InterConf» 120 (2022): 121-124.
2. Aliboyeva, Nigina Alisher Qizi. "LITERARY TRANSLATION OF CHILDREN'S LITERATURE." CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES 4.07 (2023): 21-25.
3. ALIBOYEVA, NIGINA ALISHER QIZI. "APPROACHES TO THE ANALYSIS OF LITERARY TEXT TRANSLATION IN MODERN TRANSLATION STUDIES." THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука 7 (2022): 140-144.
4. Aliboyeva, Nigina Alisher Qizi. "The direct translation of roald dahl's novel "matilda" into Uzbek language." Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities 12.9 (2022): 77-80.
5. ALIBOYEVA, NIGINA ALISHEROVNA. "CHILDREN'S FICTION IS ONE OF THE MOST IMPORTANT FACTORS IN THE FORMATION OF A CHILD AS A PERSONALITY." АКТУАЛЬНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В СОВРЕМЕННОМ

МИРЕ Учредители: Общественная организация" Институт социальной трансформации": 28-30.

6. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Tarjima>
7. [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Tarjimaning\\_izohli\\_nazariyasi](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Tarjimaning_izohli_nazariyasi)
8. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Metod>
9. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Tilshunoslik>